

## **“Qo’li gul qizlarjon”**

Toshkent irrigatsiya va qishloq xo’jalogini mexanizatsiyalash muxandislari Institutida 2021 yil 11-oktyabr “Xalqaro qizlar” kuni munosabati bilan “Qo’li gul qizlarjon” badiiy-ma’rifiy tadbir bo`lib o`tdi. Tadbir Xotin-qizlar maslahat kengashi raisi Z.Ismailova va talabalar turar joyi tarbiyachi pedagogi A.Xaitovalar tomonidan tashkillashtirildi.Tadbirda hamkor tashkilotlar Toshkent shahar “Tadbirkor ayol”ishbilarmon ayollar assotsatsiyasi raisi V.Yuldasheva hamda O`zbekiston XDP Mirzo Ulugbek tuman kengashi raisi .SH.Qurbanova hamda Barkamol avlod maktabi, 101- maxsus internat maktabi, Anhor- Lokomotiv hunarmandlar markazi o’zlarining qo’l mehnatlari bilan yaratilgan ko’rgazmali chiqishlari bilan ishtirok etishdi.Tadbirni yoritishda O’zbekiston hamda Yoshlar telekanali xodimlari yaqindan yordam berishdi.



Bayram tadbirini institut yoshlar masalalari va ma’naviy-ma’rifiy ishlar bo'yicha prorektor, pedagogika fanlari doktori, professor R.Choriyev ochib berdilar hamda bayram ishtirokchilariga samimiyl tilaklarini yo'lladi. XDP raisi SH.Qurbanova hamda Toshkent shahar Xotin Qizlar Tadbirkorlik markazi tomonidan tashkil etilgan 60 soatlik o'quv kursining “Tadbirkorlik ko’nikmalari” yo’nalishini muvaqqiyatli tamomlagan 20 nafar qizlar sertifikat bilan taqdirlandi. Institut Yoshlar Ittifoqi BT Yetakchisi D.Rasulov so’zga chiqib barcha kengash a’zolari nomidan ‘Xalqaro Qizlar kuni’ bilan tabrikladi. Tadbrda iqtidorli qizlar ustoz san’atkor Klara Jalilovaning ‘Do’ppi tikdim’ qo’shig’i, Mustaxzod, Xorazm lazgisi va turli xil millat raqslari shuningdek milliy va zamonaviy liboslar namoyishi bilan faol ishtirok etdilar.



Bayram ishtirokchilari tomonidan ijro etilgan raqs va chiqishlar yig'ilgan barchaga manzur bo'ldi hamda ko'tarinki kayfiyat bilan qarshi olindi. Tadbir so'ngida Xotin-Qizlar maslahat kengashi raisi Z.Ismoilova so’zga chiqib barcha ishtirokchilarga tabrik yo'llab o'z minnatdorchiliginizi izhor etdi. Axborot beruvchi: 3-TTJ tarbiyachi pedagog A.Xayitova



**TIQXMMI matbuot xizmati**